

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI  
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI  
“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

**“Ipak yo‘li” turizm va madaniy  
meros xalqaro universiteti  
birinchi prorektori  
D.NASIMOV**

**31-oktyabr, 2025-yil.**

**17.00.06 – “Muзейshunoslik. Tarixiy-madaniy  
yodgorliklarni ta'mirlash va saqlash” ixtisosligi bo'yicha PhD  
tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar  
uchun imtihon**

**DASTURI**

**SAMARQAND – 2025**

## KIRISH

Dasturning maqsadi - 17.00.06 – “Muзейshunoslik. Tarixiy-madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va saqlash” ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka o'qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga layoqatini aniqlash bo'yicha o'tkaziladigan imtihon mazmuni bilan tanishtirishdan iborat. Dasturning vazifasi mustaqil izlanuvchilikka o'qishga talabgorlarning o'z sohasida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan.

Imtihon topshiruvchilar savollarga komissiya a'zolari oldida javob beradi. Komissiya a'zolari tomonidan imtihon topshiruvchilarga imtihon qabul qilinayotgan predmet bo'yicha qo'shimcha savollar berilishi mumkin. Komissiya a'zolari ball qo'yishda mustaqildir.

Komissiya a'zolari qo'ygan ballari to'g'risida komissiya raisiga ma'lum qiladi va komissiya raisi tomonidan o'rtacha umumiy ball chiqariladi.

Kirish imtihoni yozma yoki og'zaki ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga berilgan javob quyidagicha bo'ladi:

| Har bir savol uchun ball | Javobga qo'yiladigan talablar                                                                                                                                                                                                                                                                |
|--------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 86-100                   | Qo'yilgan savollarga to'liq javob bergan.<br>Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan.<br>Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan.<br>Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan.<br>Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan |
| 71-85                    | Savollarning mohiyatini tushungan. Javobini yoritib bera olgan.<br>Amaliy misollar keltirgan. Tasavvurga ega.<br>Qisqacha xulosa bergan.<br>Fikrlarni sodda bayon etgan                                                                                                                      |
| 55-70                    | Savol mohiyatini tushungan.<br>Javob yoritilgan, qisqa shaklda.<br>Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.                                                                                                                                                                             |
| 0-54                     | Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.                                                                                                                                                                               |

Imtihon biletida har bir savolga javob tayyorlash uchun talabgorlarga o'n besh daqiqa vaqt ajratiladi. Talabgor qirq besh daqiqa davomida uchta savolga javob tayyorlab, ularni komissiyaga og'zaki tarzda taqdim etadi. Agar talabgorning javobi komissiya a'zolarini qoniqtirmasa yoki javob noaniq va yuzaki bo'lsa, komissiya dasturga kiritilgan boshqa qo'shimcha savollarni berishi mumkin.

## **ASOSIY QISM**

Muzeyshunoslik va tarixiy-madaniy yodgorliklarni ta'mirlash hamda saqlash sohasi mamlakatimiz madaniy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi. Muzeylar madaniy-tarixiy yodgorliklarni saqlash, taqdim etish va o'rganish markazi sifatida xizmat qiladi. Bu sohada olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar muzeyshunoslik va madaniy merosni saqlashning dolzarb masalalarini hal etishga yo'naltirilgan.

Muzeylar va tarixiy-madaniy yodgorliklarni ta'mirlash, saqlash, hamda ularni keng jamoatchilikka taqdim etishda professional kadrlar tayyorlash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, soha bo'yicha chuqur bilimga ega, ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatda faol ishtirok eta oladigan mutaxassislar zarur. Shuning uchun ham mazkur sohaga talaba yoshlarni professional tayyorlash, boshqarish metodlarini o'zlashtirish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan." Bu obyektlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish uchun muzeyshunoslik va tarixiy-madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va saqlash sohasidagi kadrlar tayyorlash nihoyatda muhimdir. Shuningdek, muzeylar va tarixiy yodgorliklarni asrab avaylash hamda turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Muzeylar va yodgorliklarni saqlash va ulardan samarali foydalanish borasida hukumat tomonidan qator qonun hujjatlar yangi tahrirda ishlab chiqildi va qo'shimchalar kiritildi. Buning uchun albatta soha bo'yicha bilimga ega, zamon talablariga javob bera oladigan, har tamonlama xalqaro standartlarga mos kadrlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

### **I. Muzeologiya**

Muzei – muzei ashyolari va kolleksiyalarini saqlash, o'rganish va ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi hisoblanadi. Muzeyshunoslikning spetsifikasi. Muzeyshunoslikda quyidagi tarixiy, nazariy va amaliy elementlar farqlanadi. Nazariya to'rtta tarkibiy elementdan tashkil topgan:

1. Muzeyshunoslikning umumiy nazariyasi – muzeyshunoslik obyekti, predmeti, metodlari va struktura elementlarini, uning ilmiy fanlar sistemasidagi o'rnini aniqlaydi; tushunarli ilmiy apparatni ishlab chiqadi; muzei predmeti va muzei fenomenini o'rganadi; muzeylarning ijtimoiy funksiyasiga, muzei tarmoqlarining shakllanishiga, muzeylar

klassifikatsiyasi va tipologiyasiga bog'liq masalalarni tadqiq qiladi; spetsifik muzeylar faoliyatining ilmiy asoslarini ishlab chiqadi.

2. Hujjatlashtirish nazariyasi – muzey fondlarini to'ldirish, ya'ni muzeylar to'plamiga voqelik obyektlarini tanlash metodologiyasi va metodikasiga bog'liq masalalarni o'rganadi.
3. Zahira nazariyasi – bu ilmiy-fond ish usuli; muzey buyumlarining va ulardagi axborotning qimmatini bilish, ya'ni muzey predmetlaridan foydalanish, ularni hisobga olish va saqlash jarayonlariga bog'liq.
4. Kommunikatsiya nazariyasi – muzeyni kommunikatsion institutlardan biri sifatida, axborotning uzatilish xususiyatini, muzey vositalari va kommunikatsiya shakllarining tomoshabinlarning turli kategoriyasiga ta'siri masalalarini o'rganadi. Muzey manbashunosligi muzey predmetlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish bilan shug'ullanadi; aniqlash, tadqiq qilish va foydalanish nazariyasi va metodikasini ishlab chiqadi.

Muzey funksiyalari. Muzeyning sotsial funksiyalari masalalari chet el va mahalliy muzeyshunoslar tomonidan bir necha o'n yildan beri muhokama etilmoqda, lekin hali to'liq hal etilmagan. Tadqiqotchilarning fikricha, funksional tahlil muzeyning jamiyatdagi rolini tushunishda va uni yanada rivojlantirish yo'llarini aniqlashda muhimdir. Olimlar "muzey vazifasi" tushunchasini yoki muzey faoliyatiga bog'liq fanlar yordamida uning asosiy vazifasini kengroq yoritishni taklif etadilar. Misol tariqasida, muzey ashyolarini hujjatlashtirish va ta'lim-tarbiya vazifasidan tashqari ularning fondlarini saqlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, estetik, gnoseologik, aksiologik va tarbiyaviy vazifalarni ham kiritish mumkin.

Muzey turlari. Tarixiy, badiiy, texnik, ochiq osmon ostidagi, soha mutaxassisliklariga oid, etnografik, majmuaviy muzeylar, o'lkashunoslik, tabiat muzeylari, geologiya, ekomuzeylar, virtual muzey va hokazo.

#### **Muzeylarning ijtimoiy-madaniy sharoitdagi o'rni**

Muzeylar jamiyatda ijtimoiy-madaniy sharoitning muhim qismlaridan biridir. Ular madaniy merosni saqlash, ta'lim va tarbiya berish, shuningdek, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish orqali jamiyatga xizmat qiladi. Muzeylar o'z faoliyati bilan iste'molchi – ya'ni tashrif buyuruvchilar bilan aloqani mustahkamlaydi va shaxsiyat rivojiga qaratilgan xizmatlarni amalga oshiradi. Ularning asosiy vazifasi barkamol insonni tarbiyalash va ma'naviy, g'oyaviy va estetik ehtiyojlarini qondirishdir.

#### **Muzeyshunoslikning vazifalari**

Muzeyshunoslik ikki asosiy tarixiy funksiyaga ega:

1. Hujjatlashtirish funksiyasi: Muzeylar madaniy merosni saqlash va hujjatlashtirish orqali tarixiy voqealarni va buyumlarni kelajak avlodlar uchun saqlab qoladi.
2. Ta'lim va tarbiya funksiyasi: Muzeylar ta'lim va tarbiya berish orqali jamoatchilikka, xususan, yoshlarga madaniy va ilmiy bilimlarni etkazadi.

### **Muzeyshunoslik obyekti va predmeti**

Muzei atamasining kelib chiqishi: "Muzei" atamasi qadimgi yunoncha "mouseion" soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, "ilhom parilari" uchun joy maʼnosini bildiradi.

Muzeyshunoslik tadqiqot obyekti: Muzeyshunoslikning tadqiqot obyekti muzeilar va ularning faoliyatidir.

Muzeologiya va Muzeografiya: Muzeologiya muzeyshunoslikning nazariy asoslarini oʻrganadi, muzeografiya esa muzeilarni tashkil etish va boshqarish bilan shugʻullanadi.

Madaniy merosni saqlash: Muzeilar madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish boʻyicha institut sifatida muhim rol oʻynaydi.

Taʼlim va tarbiya funktsiyasi: Muzeilar taʼlim va tarbiya berish orqali jamiyatning madaniy va ilmiy darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Muzeyshunoslik tarixi va nazariyasi: Asrlar davomida muzeilarning shakli, vazifalari va boshqaruv usullari sezilarli darajada oʻzgargan.

### **Muzeyshunoslikda metod tushunchasi**

Metod: Metod yunoncha "methodos" soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, maqsadga yetishish yoʻlini anglatadi. Bu yangi bilimlarni egallashning muhim shartidir va ilmiy maqsadga tartibli faoliyat orqali yetishish yoʻlidir.

Metodologiya vazifasi: Metodologianing vazifasi muzeyshunoslik tadqiqotlari, jumladan, dissertatsiyalar mazmunini ochishdan iboratdir.

### **Muzeyshunoslikdagi ilk nazariy tadqiqotlar**

Sanʼatshunoslikda bilishning ikki darajasi mavjud:

1. Empirik daraja: Bu darajada sanʼat tarixi va zamonaviy holatiga oid konkret faktlar, turlar va shakllar tahlil qilinadi.
2. Nazariy daraja: Bu darajada maʼlum faktlarni tushuntiradigan gipoteza va konsepsiyalar ilgari suriladi, umumlashtiriladi va sanʼatning istiqboli prognozlashtiriladi.

## **II. Muzeografiya**

### **Antik davr kolleksiya va kolleksionerlari**

Antik davrda kolleksiyalar yigʻish keng tarqalgan fenomen hisoblangan. Qadimgi davrdagi kolleksiyalar muzeilar uchun muhim ahamiyatga ega edi. Afinaning Akropolidagi mashhur pinakoteka tashkil etilib, faoliyat yuritdi. Misrdagi Aleksandriya muzeyi va kutubxonasi oʻz zamonining yirik madaniyat markazlaridan biri boʻlib xizmat qildi. Ellin podsholari antik dunyoda ilk kolleksionerlar sifatida eʼtirof etilgan. Qadimgi Romada esa xususiy va ommaviy toʻplamlar shakllanib, Rimliklarning harbiy yurishlari davrida madaniy yodgorliklar yigʻilgan. Rim kolleksionerlari oʻzlarining noyob sanʼat asarlarini yigʻishga katta ahamiyat berishgan, bu esa sanʼat bozorining rivojlanishiga olib keldi. Rim ibodatxonalari boy sanʼat asarlari, noyob buyumlar va relikviyalari bilan toʻldirildi.

## **O'rta asrda cherkov va ibodatxonalarda kolleksiyalarning to'planish tarixi**

O'rta asrlar xronologiyasi va Yevropadagi siyosiy-tarixiy jarayonlar O'rta asrda madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini belgiladi. Yevropadagi ibodatxonalar va ularning xazinaxonalari muhim rol o'ynadi. VII asrning boshlarida G'arbiy Yevropada cherkov xazinalarining boyitilishi boshlandi. Imperator Buyuk Karl davrida ibodatxonalar qurilishi kengaydi. G'arbiy Yevropaning eng yirik ibodatxonalarida mashhur san'at asarlari mavjud edi. O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida ham to'plamlar tashkil etildi, bu erda o'ziga xos madaniy jarayonlar kechdi. Sharq mamlakatlari hukmdorlarining xazinolari muzeylar barpo etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

### **Uyg'onish davri galereya va kabinetlari**

Uyg'onish davri tushunchasi, galereya va kabinetlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Kunstkamera, myunskamera, vunderkamera va shatskameralar kabi tushunchalar ilk galereya va kabinetlarning ko'rinishlarini ifodalaydi. "Muzey" atamasi renessans davrida qayta tiklandi. Studiolo tushunchasi va antikvariya tushunchalari ham ahamiyatga ega. O'rta asrlarda g'arb mamlakatlaridagi hukmdorlarning studiolar, jumladan, Gersog Franchesko Medichi studiolasining o'ziga xosligi e'tiborga molik. Rim Kapitoliyasidagi ilk Antikvariya ham san'at kolleksiyalarining shakllanishida muhim o'rin tutdi.

### **Yevropa muzeylari tarixi**

Janubiy Yevropada, Italiya muzeylari tarixi muhimdir. Kozimo Medichining o'g'li Franchesko I tomonidan Uffitsi galereyasi tashkil etildi. Ushbu galereyaning eksteryer va interyeridagi o'ziga xos xususiyatlar ahamiyatlidir. Pitti galereyasi, Ispaniyadagi Prado muzeyi, Milliy arxeologiya muzeyi, Gretsiyadagi arxeologiya muzeyi va Afina Milliy zamonaviy san'at muzeyi ham yirik muzeylar qatoriga kiradi.

G'arbiy Yevropada Buyuk Britaniya muzeylari tarixi: Britaniya Milliy muzeyi, Viktoriya va Albert muzeyi; Fransiya muzeylari tarixi: Luvr muzeyi, Jorj Pompidu nomidagi Milliy san'at markazi va Orse muzeyi. Germaniya muzeylari tarixida Drezden galereyasi, Berlin suratlar galereyasi va Myunxendagi Eski pinakoteka muhim ahamiyatga ega. Bavariya qiroli Lyudvig I ning kutubxonachisi tomonidan "gliptoteka" atamasi kiritilgan. Myunxendagi Gliptoteka esa 1830-yilda ochilgan.

Shimoliy Yevropada Shvetsiya muzeylari tarixi, Sharqiy Yevropada esa Polsha va Chexiya muzeylari tarixi ham muhimdir.

### **Rossiya muzeylarining rivojlanish tarixi**

Rossiyada birinchi muzey - RFA qoshidagi Kunstkamera, Pyotr I nomidagi Antropologiya va etnografiya muzeyi sifatida ochildi. Moskva Kremlidagi Qurol - aslaha palatasi ommaviy muzeyga aylantirildi. Tretyakov galereyasi, Sharq xalqlari san'ati muzeyi va A.S. Pushkin nomidagi tasviriy san'at Davlat muzeyi ham rivojlandi.

### **Amerika muzeylarining rivojlanish tarixi**

Amerika qit'asida ilk muzeylar yaratildi. Janubiy Karolinadagi Charlston kutubxonachilik jamiyati qoshidagi ilk muzey faoliyat yuritdi. Charlz Uilson Pil tomonidan tashkil etilgan muzey va uning ixtirosi ham muhimdir. Kolleksionerlar, homiylar va metsenantlar muzeylarni tashkil etishga katta hissalar qo'shdilar, masalan, Dj. Smitson misolida. Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyi, Bostondagi Nafis san'at muzeyi va Filadelfiya badiiy muzeyi muhim o'rin tutadi.

### **Avstraliya muzeylari**

Inglizlar tomonidan Avstraliya hududining bosib olinishi, 1827-yilda ruhoniylar Aleksandr Makley tomonidan Avstraliya muzeyining asos solinishi, Avstraliya Milliy muzeyi, Avstraliya Milliy galereyasi va Zamonaviy Sidney san'at muzeyi ham rivojlandi.

### **Afrika muzeylari**

Afrikadagi muzeylar tarixi XIX asrda boshlanadi. Ilk muzeylar ochilishi bilan mahalliy aholining muzeylarga bo'lgan munosabati shakllana boshladi. Mamlakatda eng mashhur muzeylar qatoriga Qohira muzeyi, Asuandagi Nubiya muzeyi, Bamako Milliy muzeyi, Bardo Milliy muzeyi, Islom san'ati muzeyi, Marokash Milliy san'at muzeyi, Keniya milliy muzeyi, Pretoriya muzeyi va Ilm-fan va texnologiyalar muzeyi kiradi.

### **Osiyo muzeylari tarixi**

Sharqiy Osiyo: Xitoyda ilk muzeylarning tashkil topishi tarixi mavjud. Imperator Sin Shixuan maqbarasi muzeyi, Gugun muzeyi va Xitoy Milliy muzeyi bu regiondagi muhim muzeylardir. Yaponiya badiiy muzeyi, Yaponiya Milliy muzeyi va Tokio Milliy muzeyi ham juda mashhur. Koreya Milliy muzeyi va Koreya Milliy folklor muzeyi, shuningdek, Mongoliya Milliy liboslar muzeyi, Ulan Bator muzeyi va Bagdo Xan saroyi ham Sharqiy Osiyo muzeylari ro'yxatiga kiradi.

Janubiy Osiyo muzeylari: Hindiston Milliy muzeyi, Matxur arxeologiya muzeyi, Sarnat va Agra muzeylari, Viktoriya va Albert muzeyi, Afg'onistondagi Qobil muzeyi, Erondagi Bo'ston Arxeologiya muzeyi va Sherozdagi Kom va Pars muzeylari, shuningdek, Pokiston Milliy muzeyi bu mintaqadagi muhim muzeylardir.

G'arbiy Osiyo muzeylari: Ozarbayjondagi gilam va amaliy san'at muzeyi, Armaniston Milliy suratlar galereyasi, Gruziya Milliy muzeyi, Quddusdagi Kitob muzeyi va Xolon bolalar muzeyi, Iroq Milliy muzeyi, Turkiya arxeologiya muzeyi va To'p-Kopi saroy majmuasi muzeyi, BAAdagi Dubay tarixiy muzeyi va Saudiya Arabiston Milliy muzeyi G'arbiy Osiyo muzeylari qatoriga kiradi.

Markaziy Osiyo muzeylari: Qozog'iston Davlat markaziy muzeyi, Qirg'iziston Davlat tarixi muzeyi, Tojikiston Milliy muzeyi va Turkmaniston Milliy muzeyi Markaziy Osiyodagi muhim muzeylardir.

## **O'zbekiston muzeylari tarixi**

O'rta Osiyo hududlarida ilk to'plovchilik faoliyatining paydo bo'lishi. O'rta asrlarda bu hududda to'plovchilik faoliyati yanada rivojlandi. Podshoh saroylarida noyob va nodir badiiy asarlarning to'plamlari yig'ildi. Chet mamlakatlardan tashrif buyurgan sayyohlar va olimlar O'rta Osiyoning madaniy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirdilar. Bunday madaniy yodgorliklarning chet elga olib ketilishi ham kuzatildi.

Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida ilk ko'rgazmalar paydo bo'ldi. Ko'rgazmalar tashkil etish sabablari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar mavjud. O'zbekiston MDA dagi ko'rgazmalar ham ahamiyatga ega.

Turkistonda 1876-1917 yillar davomida muzeylar barpo etildi. Turkistondagi kolleksionerlik faoliyati muhim rol o'ynadi. Toshkentda birinchi muzey tashkil etilib, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish mumkin. Toshkent muzeyining asoschilari va ularning kolleksiyalari, shuningdek, Samarqand va Farg'onada tashkil etilgan muzeylar haqida ma'lumotlar mavjud. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Andijon viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Qoraqalpog'iston davlat o'lkashunoslik muzeyi, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat muzeyi, Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi, Xiva "Ichon-qal'a" muzey-qo'riqxonasi va mustaqillik yillarida tashkil etilgan muzeylar, shuningdek, turli vazirlik va idoralarga tegishli muzeylar mavjud.

## **O'zbekiston Respublikasi "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash**

O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi mamlakatimizda muzeylar faoliyatida katta o'zgarishlar keltirib chiqardi. Mustaqillik yillarida asosiy muzeylar faoliyati saqlanib qolindi. 1998-yil 5-dekabrda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari"ga oid 98-sonli Qaror, 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan 1913-sonli "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmon, 2008-yil 12-sentabrda qabul qilingan "Muzeylar to'g'risida"gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 31-oktyabrdagi "Muzeylar faoliyatiga taalluqli me'yoriy hujjatlar to'g'risida"gi 237-sonli, 2010-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 68-sonli qarorlar qabul qilindi.

## **Muzeylar faoliyatiga oid xalqaro me'yoriy hujjatlar va xartiyalar**

Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqalarga o'tkazishning olcini olishga qaratilgan choralar to'g'risidagi konvensiya (14-noyabr, 1970-yil), Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (16-noyabr, 1972-yil), Suvosti madaniy merosini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (2-noyabr, 2001-yil) va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya (15-oktabr, 2003-yil) kabi xalqaro me'yoriy hujjatlar ham mavjud.

### **Muzeylarning klassifikatsiyasi**

Muzeylarning klassifikatsiyalash zarurati ixtisoslikka asoslanadi. Muzeylarni klassifikatsiyalashning asosiy sabablari mavjud bo'lib, bu ixtisoslik muzeylarining paydo bo'lishi va turli yo'nalishlari bilan bog'liqdir.

### **Muzey fondlari**

Muzey fondlari ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish tartibi muhimdir. Ular asosiy fond, ilmiy yordamchi fond va vaqtinchalik saqlov fondlariga bo'linadi. Ro'yxatga olish hujjatlari, qabul qilish va topshirish dalolatnomalari mavjud. Doimiy saqlovga qabul qilingan muzey ashyolari kirim kitobiga kiritiladi, muzey ashyolarini ilmiy ro'yxatga olish tartibi esa alohida ko'rib chiqiladi. Vaqtincha qabul qilingan ashyolar uchun alohida ro'yxatga olish kitobi yuritiladi. Ilmiy yordamchi materiallarni ro'yxatga olish kitobi va muzey ashyolarining ilmiy-tahliliy kartochkalari bilan ishlash, shuningdek, kartotekalar bilan ishlash jarayonlari mavjud. Muzey fondlarini ro'yxatga olish va qayd etish bo'limining faoliyati, muzey ashyolarining harakatlanish jadvali hamda ularning barchasi muzey faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

### **Muzey fondlarini komplektlash**

Fondlarni komplektlash rejalarini tuzish, istiqbolli va joriy rejalariga muvofiq amalga oshiriladi. Sistematik, tematik va kompleksli komplektlash usullari mavjud. Komplektlashning shakllari – kolleksiya sotib olish, sovg'a tariqasida olish, almashinuv va maqsadli buyurtmalarni amalga oshirish. Komplektlash bo'yicha xizmat safarlari va ekspeditsiyalar uyushtirish ham muhimdir.

### **Muzey rahbar xodimlari va mutaxassislarining huquq va majburiyatlari**

Muzey direktori muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash, fondni to'ldirib borish, hisobga olish, ilmiy ro'yxatdan o'tkazish, ta'mirlash va muhofaza qilish, shuningdek, muzey binosini kechayu kunduz qo'riqlash va yong'indan saqlash majburiyatlariga ega. Bosh muhofizlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, muhofizlarning huquq va majburiyatlari ham alohida e'tiborga olinadi.

### **Muzey fondlarini saqlash**

Muzey fondlarini saqlashda turli guruhlardagi harorat-namlik tartibi, havoni bug'latuvchi omillardan himoya qilish, to'g'ri yorug'lik tartibi va biologik zararkunandalarga qarshi kurashish muhimdir. Muzey ashyolarini mexanik zararlanishlardan himoya qilish, favqulotda holatlarda muzey zahiraxonalarida himoya tizimini ta'minlash va yangi texnologiyalarni qo'llash ham muhim vazifalardandir.

### **Muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish**

IKOM tomonidan ishlab chiqilgan CIDOC va AFRICOM katalogizatsiya ma'lumotnomasi (1996-1997), Buyuk Britaniyaning muzey hujjatlari assotsiatsiyasining SPECTRUM standarti (MDA-1997) kabi hujjatlar mavjud. Ekspонатlarni noqonuniy savdosini oldini olish maqsadida yo'qolgan ekspонатlar to'g'risida ma'lumotlarni e'lon qiluvchi Thornes (1999) dasturi, Rossiyaning ADIT notijorat hamkori va KAMIS dasturi hamda O'rta Osiyo muzeylari uchun

tayyorlangan "Muzeolog" elektron dasturi ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan Milliy muzey fondining yagona elektron katalogi "SKM-muzey" dasturi ham muhim ahamiyatga ega. Web-kataloglar ham faoliyat ko'rsatadi.

### **Konservatsiya va restavratsiya vazifalari**

Restavratsiyaning shakllanishi va rivojlanishi tarixi, shuningdek, yodgorliklarni konservatsiya va restavratsiya qilish to'g'risidagi Afina (1947) va Venetsiya (1968) xartiyalari, Amerika restavratsiya etikasi kodeksi (1986) ham ahamiyatlidir. Jahondagi yirik muzeylar qoshidagi restavratsiya va konservatsiya laboratoriyalarining faoliyati ham muhimdir. Muzey ta'mirchilarning vazifalari, ta'mirlanayotgan muzey ashyolari va kolleksiyalarining holatini aks ettiruvchi bayonnomalar, dalolatnomalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlar ta'mir ishlarining maxsus kitoblarida qayd etilishi zarur.

### **Muzey kolleksiyalarini fotofiksatsiyalash**

Fotofiksatsiya tushunchasi, muzey kolleksiyalarini fotofiksatsiyalashning ilmiy ahamiyati, ilmiy pasportlarni yozish va restavratsiya jarayonlarini qayd etish jarayonida fotofiksatsiyalash bosqichlari muhimdir.

### **Muzey predmetlarini upakovka va transportirovka qilish**

Vaqtinchalik ko'rgazma, restavratsiya, ekspertiza va boshqa joylarda eksponatlarni olib kelishda ularni upakovka va transportirovka qilish chora-tadbirlari zarur. Predmetni yaxshi saqlanishini ta'minlovchi vositalar, upakovka va transportirovka qilish tartib-qoidalari ham muhimdir.

### **Ekspozitsiya tuzish metodlari**

Ekspozitsiya tushunchasiga umumiy ta'rif berish, ekspozitsion material, tematik struktura va ekspozitsion komplekslarni belgilash lozim. Ekspozitsiya mazmunining badiiy interpretatsiyasi, ekspozitsion jihozlar – stendlar, turniketlar, vitrinalar, podiumlar, rang va yorug'lik me'moriy-badiiy ansamblning aktiv va spesifik komponentlari sifatida e'tiborga olinishi zarur. Fazoviy yechimning ekspozitsiyasini his etishdagi ahamiyati, ekspozitsiya loyihalashning tarkibiy qismlari – ilmiy loyihalash, badiiy loyihalash va texnik va ishchi loyihalash kabi jarayonlar muhimdir. Ilmiy konsepsiya, kengaytirilgan tematik struktura, ekspozitsiyaning tematik rejasi va tematik-ekspozitsion rejasini (TER) tuzish ishlari amalga oshiriladi.

### **Tabiat, tarix namunalarini, badiiy asarlarni ekspozitsiyaga qo'yish metodlari**

Tabiat muzeylarida tog' jinslarini, tuproq namunalarini, paleontologiyaga oid eksponatlarni, botanik va zoologik eksponatlarni, tabiiy-tarixiy va tabiat namunalarini namoyish etish usullari mavjud. Paleontologiyaga oid eksponatlarni ekspozitsiyaga qo'yishda alohida metodlar qo'llaniladi. Tarixiy yodgorliklarni namoyish etish usullari, moddiy madaniyat, ishlab chiqarish va texnika tarixi, to'qimachilik mahsulotlari (matolar, gilamlar, gobelenlar), kiyimlar va taqinchoqlar, uy-ro'zg'or buyumlari va idishlarni namoyish qilish jarayonlari ko'zda tutiladi.

Qo'lyozmalar va hujjatlarni namoyish etish ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarlarni ekspozitsiyaga qo'yish metodlari ham o'z o'rniga ega.

### **Ekspozitsiyada yoritish moslamalarining o'rni**

Muzeylarda yorug'lik manbalari konsepsiyasi texnik, estetik va psixologik faktorlarni o'z ichiga oladi. Yorug'likni yo'naltirish va tushish burchagi, muzey ashyolarini namoyish qilish sharoitlarida xalqaro talablarga muvofiq ultrabinafsha, infraqizil va issiqlik tarqatuvchi nurlardan himoya qilish zarur. Har bir kolleksiyaga alohida individual yoritish darajasini to'g'ri tanlash ham muhim.

### **Ko'rgazma faoliyatining rivojlanish tarixi**

Ko'rgazmalar turlari, tematik ko'rgazma tuzishning asosiy prinsiplari, fond saqlovxonalaridagi eksponatlarni ko'rgazmaga qo'yish, restavratsiya yakunidan so'ng hisobot ko'rgazmalarini tashkil etish jarayonlari mavjud. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ko'rgazma faoliyatida qo'llanilishi ham ahamiyatli.

### **Muzeydan tashqari ko'rgazmalar: funksiya va tipologiya**

Mahalliy va xalqaro ko'rgazmalar, muzeydan tashqari ko'rgazmalarni tashkil etish tartib-qoidalari, xalqaro ko'rgazmalar uchun smeta loyihasini ishlab chiqish va ko'rgazma konsepsiyasini yozish jarayoni hamda ularning barchasi ko'rgazma faoliyatida muhimdir.

### **Muzeyning ilmiy konsepsiyasi va ssenariysi yozish tartibi**

Muzeyning yo'nalishidan kelib chiqib maqsad va vazifalarini aniqlash, muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash, o'rganish va namoyish etish yo'llari va istiqbolli rejalarini konsepsiyada aks ettirish zarur. Uy-muzeylari misolida muzey ssenariysini yozish tartibi ham muhimdir.

### **Muzey dizayni**

"Dizayn" tushunchasi XIX asr oxirida badiiy ijod sohasi sifatida shakllangan. XX asrda muzeylar me'morlar bilan hamkorlik qilishni boshlagan. Ekspodizayn tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega.

### **Muzey va reklama**

Muzey faoliyatini targ'ib qilishda reklamaning roli muhimdir. Afishalar, flayerlar, bukletlar, taklifnomalar, web-saytlar, ko'rgazmalarga bag'ishlangan promo-roliklar va promo-saytlar yaratish jarayonlari hamda OAV bilan ishlash va press-relizlar tayyorlash ko'rsatiladi.

### **Muzey va turizm**

Muzey turizmining qonuniy-huquqiy asoslari, muzeylarni turistik marshrutlar ro'yxatiga kiritish va tizimlashtirish darajalari, muzeylarda turistik marshrutlarni shakllantirish jarayoni ham muhimdir. Sayyohlik agentliklari va muzeylar o'rtasidagi hamkorlik, O'zbekistondagi sayyohlik agentliklari va ularning faoliyati, Yevropa muzeylarining spesifikalari va turistik marshrutlarni tashkil etish uslublari ham ko'rib chiqiladi. Turizmda ekskursovodlik faoliyati va kasbga qo'yiladigan talablar, turizm etikasi va yodgorliklar bilan tanishuv qonun-qoidalari ham alohida e'tiborga olinadi. O'zbekistonda muzey sohasiga oid turistik resurslar ham muhim ahamiyatga ega.

### **Muzey nashrlari**

1877-yildan Drezden shahrida "Muzeologiya va noyob narsalar" jurnali nashr etilgan. 1883-yilda doktor Y.G. Grasse "Muzeologiya fan sifatida" maqolasini yozgan. 1901-yilda Buyuk Britaniyada "Museum Journal"ga, 1905 yilda Germaniyada "Museumkunde" jurnaliga asos solingan. "Mouseion" jurnalining (1927-1946 yillar) va muzey masalalariga oid monografiyalar seriyasi nashr etilgan. 1948-yildan boshlab IKOM tomonidan "Museum" jurnali nashr etilmoqda. Rossiyaning "Mir muzeya" jurnali faoliyati, O'zbekistonda esa 1999-yildan boshlab "Moziydan sado" jurnali chop etilmoqda.

### **ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. "Музейлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2008 йил 12 сентябрь // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 йил. – № 37-38. – Б. 12-20.
2. Bulding National Museums in Europe 1750-2010. Linkoping. Sweden. 2011.
3. Paul Getty Trust. The first treatise on Museums. Samuel quiccheberg's Inscriptiones 1565. Los Angeles. California. 2013.
4. Verlag Dr.Christian Muller-Straten Munich. Introduction to Muzeology - the European Approach. Munich. 1998.
5. Абанкина Т.В. PR некоммерческой организации: теоретические основы современных PR – технологий и моделей коммуникации // Музей будущего: Информационный менеджмент. М., 2001. – 191 б.
6. Альмеев Р. Бухара – город музеев. – Ташкент: Фан, 1999.
7. Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Ташкент: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма. 2007.
8. Бекмуродов М., Рашидова М. Музейшунослик. – Тошкент, Ворис Али, 2006.
9. Илалов И. Музееведение. – Ташкент: Мусика, 2006.
10. Кликс Р.Р. Художественное проектирование экспозиций. М., 1978. – 350с
11. Кулямова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. Тошкент: Санъат, 2010.
12. Лебедева Л.Д. Педагогические основы арт-терапии в образовании. СПб., 2001. – 218 с.
13. Литвинов В.В. Практика современной экспозиции. М.: Плакат, 1989.
14. Ломунова А.К. Воспитание музейной культуры посетителя. М., 1988.
15. Лысикова О.В. Музеи мира: Учебное пособие к интегрированному курсу «Музеи мира». М.: Флинта: Наука, 2004. – 128 с.
16. Майлз Р. Планирование – основной инструмент менеджмента // Музей. Маркетинг. Менеджмент. – М., 2001. – 127 с.
17. Майстровская М.Т. Архитектурно-художественные компоненты в музейной экспозиции. М., 1985. - 465 с.

- 18.Макаров Н.Г. Детские музеи Америки. История и современность. – Москва: 1997. 229 с.
- 19.Михайловская А.И. Музейная экспозиция: Организация и техника. М., 1964. – 520 с.
- 20.Молоканова Т.В. Музей и школа: возможности взаимодействия // Проблемы педагогики средней и высшей школы / Сборник. Вып.1. – Калинин: Калининский госуниверситет. 2004. – 60 с.
- 21.Музееведение. Программа курса и музейно-экскурсионной практики. Методические рекомендации. Сост. Дашкевич Л. и Зорина Л.; Екатеринбург, 1999.
- 22.Музей хавфсизлиги /Анна Паолини тахрири остида. – Париж: ЮНЕСКО, 2006. – 44 б.
- 23.Музеи. Маркетинг. Менеджмент. / Сост.В.Ю. Дукельский. М., 2001.
- 24.Музейлар замонавий маданияти тизимида / Республика илмий-назарий анжумани материаллари / Тузувчилар: Эгамов А., Акилова К.- Т.: Санъат, 2007. – 222 б.
- 25.Музейларда хавф-хатарни бартараф қилишдаги ишлар /Анна Паолини тахрири остида. – Париж: ЮНЕСКО, 2009. – 48 б.
- 26.Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А. – Москва: Издательство «ВК», 2003.
- 27.Новожилова Л.И. Художественный музей в системе культуры. Современный художественный музей. Проблемы деятельности и перспективы развития. – Л., 1980. -230 с.
- 28.Нормативные и практические меры по охране культуры. Справочник ЮНЕСКО. – Алматы, 2008. - 310 с.
- 29.Общественные музеи Узбекистана / Под ред. Х.Д.Садыкова. – Ташкент: Фан, 1988. – 210 с.
- 30.Основы музейного дела. Введение в специальность: курс лекций А.Д.Тельчаров. – М.: Омега-Л, 2005. – 184 с.
- 31.Павлова Н.Н. Источники финансирования современных музеев и немного о фандрейзинге // Музей и новые технологии. М., 1999. – 275 с.
- 32.Пелевин Ю. Художественная экспозиция (принципы и методы построения). М., 1997. – 170 с.
- 33.Поляков Т.П. Как делать музей? (О методах проектирования музейной экспозиции). - М., 1997. – 210 с.
- 34.Проблемы культурной коммуникации в музейной деятельности. - М., 1989. 128 б.- 132 с.
- 35.Ревякин В.И. Художественные музеи. – М., 1974. – 248 с.
- 36.Садыков Х., Гласс Ю., Цой Е. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Ташкент: Фан, 1978. – 115 с.

37. Садыкова Н. Единство научно-исследовательской и идейно-воспитательной работы музеев Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1987. – 132 с.
38. Садыкова Н. Историография и источники по музейному строительству. – Ташкент: Фан, 1987. – 98 с. Фузайлова Г., Хасанова М. Музееведение. – Ташкент: Фан ва технологиялар босмахонаси, 2008.
39. Садыкова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975. – 290 с.
40. Соболева Н.А. Музейный сервис: пути развития. / Сборник. – Москва, 2004. – 125 с. Управление музеем: практическое руководство / Под ред. Патрик Дж. Бойлан. – Париж: ИКОМ, 2004. – 230 с.
41. Содикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1981. – 270 б.
42. Содикова Н. Мулки торож ўзбегим. – Т.: Фан, 1995. – 42 б.
43. Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. – Москва: Высшая школа, 2004.
44. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 5 мартда қабул қилинган «Музейлар фаолиятини тубдан қўллаб-қувватлаш масалалари тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 1998 йил 15 март.
45. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 31 октябрдаги «Музейлар фаолиятига тааллуқли меъёрий ҳужжатлар тўғрисида»ги 237-сонли Қарори
46. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 12 апрелдаги «Ўзбекистон Республикасининг «Музейлар тўғрисида»ги Қонунини рўйбга чиқариш учун зарур бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш ҳақида» 68-сон Қарори.
47. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилинган «Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармони // Халқ сўзи, 1998 йил 13 январь.
48. Фролов А.И. Основатели российских музеев: Учебное пособие. М., 1991. – 320 с.
49. Чинхолл Роберт. Музейная каталогизация и ЭВМ/пер. с англ./ - М., 1983.
50. Юреньева Т.Ю. Музееведение. – Москва: Академпроект, 2003.
51. Huang, Wei. Museum Studies: An Anthology of Current Practice. New York: Routledge, 2021.
52. MacLeod, Suzanne. Reshaping Museum Space: Architecture, Design, Exhibitions. New York: Routledge, 2013.
53. Bennett, Tony. The Birth of the Museum: History, Theory, Politics. London: Routledge, 1995.
54. Marstine, Janet. New Museum Theory and Practice: An Introduction. Malden, MA: Wiley-Blackwell, 2006.
55. Watson, Sheila, ed. Museums and Their Communities. New York: Routledge, 2007.

56. Mason, Randall. The Role of Museums in Cultural Heritage Management. Museum Management and Curatorship, vol. 24, no. 2, 2009, pp. 129-138.
57. ICOM (International Council of Museums). Museum Definition. Available online.
58. Museology. By O.Boynazarov. study guide 2025.-174p.

**Tarix va madaniy meros kafedrasi mudiri**



**O.Boynazarov.**